ISSN 2181-9556

Doi Journal 10.26739/2181-9556

ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

9 ЖИЛД, 4/1 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 9, НОМЕР 4/1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 9, ISSUE 4/1

ТОШКЕНТ-2026

ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№4/1 (2026) DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2026-4/1

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдуғани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решает задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ | РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ | EDITORIAL TEAM:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Заитов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпўлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрахон Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ УЧУН МУАЛЛИФ МАСЪУЛДИР | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Farfiev Baxrom
FUQAROLIK JAMIYATI, MAHALLA VA OILA INSTITUTLARINING DERADIKALIZATSIYA JARAYONINI AMALGA OSHIRISHDAGI O‘RNI……...5

2. Karimov Bobir
YANGI ÖZBEKISTON ŞAROITIDA YOŞLAR IJTIMOIY KAPITALINI RIVOJLANTIRIŞNING SOTSIOLOGIK XUSUSIYATLARI……16

3. Yunusov Kamaldin
YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY TADQIQOTLAR SOTSIOLOGGRAFIYASINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI…….24

4. Сабирова Умида, Нигматуллина Алина, Румянцева Екатерина
НЕЭТИЧНОЕ ПОВЕДЕНИЕ ПСИХОЛОГОВ КАК СОЦИАЛЬНАЯ ПРОБЛЕМА…….31

5. Якубов Ильдар
СОЦИАЛЬНОЕ ИЗМЕРЕНИЕ РЕГИОНАЛЬНОЙ ИНТЕГРАЦИИ: КАК СОТРУДНИЧЕСТВО ВЛИЯЕТ НА КАЧЕСТВО ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ…….40

6. Ixtiyarov Farxod
RAQAMLI JAMIYATDA INKLYUZIV TARAQQIYOTNING SOTSIOLOGIK DISKURSI…..48

7. Musurmanov Nodirbek
INSON KAPITALI VA IJTIMOIY RIVOJLANIŞ UYĞUNLIGI……56

8. Alimuxamedova Nodira
GLOBAL RAQAMLAŞUV DAVRIDA IJTIMOIY ONG RIVOJLANIŞINING XUSUSIYATLARI……65

9. Nematova Dilfuzaxon
JAMIYAT VA INSONLAR HAYOTIDA IJTIMOIY TARMOQLARNING AHAMIYATI……..71

10. Qosimov Vohid
DAVLAT XIZMATIDA HALOLLIK VA ADOLATNI TA’MINLAŞGA DOIR ŞARQ VA ĞARB MUTAFAKKIRLARI TA’LIMOTLARINING NAZARIY TAHLILI…….78

11. Husenov Sirojiddin
IJTIMOIY TADBIRKORLIKNING “HAR BIR OILA TADBIRKOR” HARAKATI BILAN UYĞUNLIGI……..88

12. Ixtiyarov Farxod
RAQAMLI JAMIYATDA IJTIMOIY BARQARORLIK VA KAFOLATLI XAVFSIZLIKNI TA’MINLAŞ IMKONIYATLARI…….93

ISSN: 2181-9556
www.tadqiqot.uz
ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ
ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Farfiev Baxrom,
Din ishlari bo‘yicha qo‘mita huzuridagi
Diniy-ma’rifiy sohada malaka oshirish
va qayta tayyorlash instituti professori,
sotsiologiya fanlari doktori (DSc),
e-mail: farfievbaxromjon@gmail.com

FUQAROLIK JAMIYATI, MAHALLA VA OILA INSTITUTLARINING DERADIKALIZATSIYA JARAYONINI AMALGA OSHIRISHDAGI O‘RNI

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.24133617

ANNOTATSIYA

Zamonaviy jamiyatlar sharoitlarda aholining turli qatlamlari orasida diniy e’tiqodning yuksalib borishidan o‘z hudbin niyatlarini amalga oshirish yo‘lida foydalanayotgan ayrim kishilarning soxta targ‘ibotlariga aldanib qolayotganlarning dunyoqarashlarida tub ijobiy o‘zgarishlarni sodir bo‘lishini ta’minlash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri gavdalanadi. Mazkur masalalarning muvofiq yechimini topishda esa mamlakatimizdagi fuqarolik jamiyati, mahalla va oila institutlarining faoliyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy maqolada ushbu sotsial institutlarning deradikalizatsiya jarayonini barqaror kechishidagi o‘rni sotsiologik jihatlarda tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: aforizm, fuqarolik jamiyati, mahalla, oila, institut, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, radikal g‘oyalar, resotsializatsiya, respondent, reintegratsiya, mentalitet.

Фарфиев Бахром,
профессор Института повышения квалификации и переподготовки кадров в
религиозно-просветительской сфере
при Комитете по делам религий,
доктор социологических наук (DSc).
e-mail: farfievbaxromjon@gmail.com

РОЛЬ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА, ИНСТИТУТОВ МЕСТНОГО САОУПРАВЛЕНИЯ И СЕМЬИ В РЕАЛИЗАЦИИ ПРОЦЕССА ДЕРАДИКАЛИЗАЦИИ

АННОТАЦИЯ

В условиях современного общества одной из самых актуальных проблем является обеспечение фундаментальных позитивных изменений в мировоззрении тех, кто обманут ложной пропагандой некоторых людей, использующих рост религиозных убеждений среди различных слоев населения для достижения собственных эгоистических целей. В нашей стране в поиске адекватных решений этих проблем важную роль играют деятельности гражданского общества, институтов местного самоуправления (махалля) и семьи. В научной статье рассматривается роль этих социальных институтов в устойчивом ходе процесса дерадикализации с социологической точки зрения.

Ключевые слова: афоризм, гражданское общество, махалия, семья, институт, социальная поддержка, радикальные идеи, ресоциализация, респондент, реинтеграция, менталитет.

Bakhrom Farfiev,
Professor at the Institute for Advanced Training and Retraining in the Religious and Educational Sphere under the Committee on Religious Affairs, Doctor of Sociological Sciences (DSc)
e-mail: farfievbaxromjon@gmail.com

THE ROLE OF CIVIL SOCIETY, LOCAL SELF-GOVERNMENT INSTITUTIONS, AND THE FAMILY IN THE IMPLEMENTATION OF THE DERADICALIZATION PROCESS

ABSTRACT

In contemporary society, one of the most pressing challenges is to bring about fundamental, positive shifts in the worldviews of individuals who have been misled by the false propaganda of certain actors – people who exploit the growing religious sentiment among various segments of the population to serve their own self-serving agendas. In our country, civil society, local self-governance institutions (*mahalla*), and the family all play a vital role in identifying effective solutions to these issues. This academic article examines the contribution of these social institutions to a sustainable deradicalization process, viewed from a sociological perspective.

Keywords: aphorism, civil society, mahalla, family, institution, social support, radical ideas, resocialization, respondent, reintegration, mentality.

KIRIŞ

Ma’lumki, har qanday jamiyat ilgarigi mafkuraviy nuqsonlarga ega bölgan dunyoqaraşidan voz keçgan kişilarga yana bir bor imkoniyatlarni berişi lozim. Zero, bu olamda xato qilmaydigan odamning özi yöq. Özbek xalqining dono aforizmlaridan birida – “Beayib Parvardigor” degan şior yangraydi. Şunday ekan, bilib-bilmasdan radikal g‘oyalar ta’siriga tuşib qolgan vatandoşlarimizni faqat jazolaş tizimi asosida emas, balki ularni ijtimoiy qöllab-quvvatlaş va qayta ijtimoiylaştiriş orqali töla qonli ijtimoiy hayotga qaytişlariga kömak beriş fuqarolik jamiyati, mahalla va oila institutlarining bugungi kundagi eng dolzarb vazifalaridan biri sifatida hisoblanişi isbot talab qilmaydigan voqelikdir.

Sotsiologik manbalarda mazkur hodisaga quyidagiça ta’rif berilgan: ijtimoiy qöllab-quvvatlaş – bu yakka kişi, şuningdek, u va boşqa kişilar a’zo bölgan sotsial guruhning jamiyat hayotiga könikişini amalga oşiriş, bu jarayonda vujudga keladigan ijtimoiy muammolarni bartaraf etiş va kişilarning ijtimoiy faolligini qayta tiklaşga möljallangan harakatlarning yig‘indisidir.

Jarayonning muhim sotsial ahamiyati şundaki, u har qanday jamiyat taraqqiyoti, jumladan, zamonaviy Özbekistonda hukm surayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-siyosiy barqarorligi mustahkamlaş, inson qadrini ulug‘laş, uni hurmat qilişga bevosita bog‘liqligini amalga oşiriş uçun xizmat qiladi. Şu nuqtai nazardan, ijtimoiy qöllab-quvvatlaş jarayoni davlat ijtimoiy siyosatida muhim mexanizm sifatida namoyon böladi. Bunday vaziyatlarda ijtimoiy qöllab-quvvatlaş nafaqat moddiy yordam beriş, balki şaxsning ijtimoiy faolligini tiklaş, uni jamiyatga integratsiya qiliş va barqaror hayot tarzini şakllantirişni ham nazarda tutadi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini fuqarolik jamiyati, mahalla va oila institutlarining deradikalizatsiya jarayonidagi funksional örni, özaro hamkorlik mexanizmlari hamda şaxsning ijtimoiy reintegratsiyasiga ta’sirini örganişga qaratilgan kompleks sotsiologik yondaşuv taşkil etadi. Tadqiqotda deradikalizatsiya şaxsning zöravonlikni oqlovçi radikal qaraşlardan voz keçişi, ijtimoiy aloqalarini tiklaşi va jamiyatga qayta moslaşuvini qamrab oluvçi köp bosqiçli ijtimoiy jarayon sifatida talqin qilinadi. Bunda diniy e’tiqod va diniy amaliyotlarga rioya qiliş radikallaşuv belgisi sifatida baholanmaydi, balki şaxsning ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini tavsiflovçi mustaqil körsatkiçlar sifatida örganiladi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari sifatida strukturaviy-funksional, institutsional, tizimli va ijtimoiy integratsiya yondaşuvlaridan foydalaniladi. Strukturaviy-funksional yondaşuv T.Parsonsning ijtimoiy tizim nazariyasiga tayangan holda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiylaşuv, ijtimoiy nazorat, qadriyatlarni uzatiş hamda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaşdagi funksiyalarini tahlil qiliş imkonini beradi. Institutsional yondaşuv orqali mazkur institutlarning deradikalizatsiya jarayonidagi vakolatlari, ijtimoiy mas'uliyati va özaro hamkorlik şakllari örganiladi. R.Putnamning ijtimoiy kapital konsepsiyasi asosida esa jamiyatdagi özaro işonç, ijtimoiy aloqalar va jamoaviy hamkorlikning radikallaşuvning oldini oliş hamda reintegratsiya jarayonidagi ahamiyati nazariy jihatdan izohlanadi.

Tadqiqotning empirik asosini Toşkent viloyatining şahar va tumanlaridagi mahallalarda ötkazilgan sotsiologik sörov natijalari taşkil etadi. Sörovda respondentlarning diniy e'tiqodga munosabati, özini диндор deb hisoblaş darajasi, diniy talab va amaliyotlarga rioya qiliş xususiyatlari, şuningdek, yoşlarning radikal ğoyalar ta'siriga tuşişiga sabab böluvçi omillar haqidagi qaraşlari örganilgan. Empirik ma'lumotlarni yiğişda standartlaştirilgan sörovnoma usulidan foydalanilgan bölib, unda respondentlarning subyektiv baholari va ijtimoiy tasavvurlarini aniqlaşga yönaltirilgan savollar asosiy örin egallaydi.

Olingan empirik ma'lumotlarni qayta işlaş va tahlil qilişda deskriptiv statistika, foizli taqsimot, qiyosiy tahlil, tizimlaştiriş va umumlaştiriş usullari qöllaniladi. Xususan, respondentlarning dindorlik darajasi va diniy talablarni bajarişga munosabati böyiça javoblari foiz körsatkiçlari asosida tavsiflanadi. Yoşlarning radikal ğoyalar ta'siriga tuşişiga sabab böluvçi omillar respondentlarning baholari asosida guruhlaştirilib, diniy bilimlarning yetişmasligi, oilaviy tarbiya, axborot muhitining ta'siri, iqtisodiy şaroitlar va ijtimoiy muloqotning sustligi kabi yönalişlar böyiça tahlil qilinadi. Mazkur usullar aniqlangan omillarning respondentlar tasavvuridagi nisbiy ahamiyatini baholaş imkonini beradi.

Şuningdek, tadqiqotda sifat tahlili elementlaridan foydalanilib, mahalla institutining ijtimoiy qöllab-quvvatlaş va reintegratsiya jarayonidagi amaliy faoliyati alohida holat misolida körib çiqiladi. Jumladan, Toşkent şahridagi «Jar-ariq» mahallasida ijtimoiy yordamga muhtoj oilalarni qöllab-quvvatlaş tajribasi mahalla yetakçilarining insonparvarlikka asoslangan faoliyati, ijtimoiy işonçni mustahkamlaş va jamoaviy birdamlikni rivojlantiriş imkoniyatlarini yorituvçi amaliy misol sifatida tahlil qilinadi. Uşbu holat alohida tajriba sifatida baholanib, uning natijalari barça mahallalarga bevosita umumlaştirilmaydi.

Tadqiqotda deradikalizatsiya jarayonining ijtimoiy-institutsional mexanizmlarini baholaşda fuqarolik jamiyati institutlarining jamoatçilik iştirokini ta'minlaş salohiyati, mahallaning ijtimoiy profilaktika va qöllab-quvvatlaş funksiyalari, oilaning birlamçi ijtimoiylaşuvdagi örni hamda uşbu institutlar örtasidagi hamkorlik nazariy tahlil mezonlari sifatida belgilanadi. Bunda ijtimoiy işonç, diniy-ma'rifiy savodxonlik, oilaviy munosabatlar, ijtimoiy birdamlik va reintegratsiya imkoniyatlari muhim tahliliy kategoriyalar sifatida qaraladi.

Şunday qilib, tadqiqot metodologiyasi nazariy yondaşuvlar, miqdoriy sotsiologik ma'lumotlar va alohida amaliy holatning sifat tahlilini özaro uyğunlaştirişga asoslanadi. Mazkur metodologik yondaşuv fuqarolik jamiyati, mahalla va oila institutlarining deradikalizatsiya jarayonidagi ijtimoiy ahamiyatini oçib beriş, radikallaşuv xavfini kamaytirişga qaratilgan profilaktik mexanizmlarni ilmiy jihatdan asoslaş hamda ijtimoiy reintegratsiyani takomillaştiriş böyiça amaliy tavsiyalar işlab çiqişga xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

Fuqarolik jamiyati institutlari radikal qaraşlarning zöravonlikka aylanişining oldini oliş, ijtimoiy bag'rikenglikni mustahkamlaş va şaxslarning jamiyatga qayta integratsiyalaşuvini ta'minlaşda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, nodavlat notijorat taşkilotlari, jamoat birlaşmalari va diniy-ma'rifiy taşkilotlar aholining turli qatlamlari örtasida ijtimoiy muloqotni rivojlantiriş, özaro işonçni şakllantiriş hamda ijtimoiy begonalaşuvni kamaytiriş imkoniyatiga ega. Yevropada xavfsizlik va hamkorlik taşkilotining (YXHT) 2019-yildagi qöllanmasida fuqarolik jamiyati yetakçiligidagi taşabbuslarni rivojlantiriş, davlat organlari va jamoatçilik örtasidagi hamkorlikni mustahkamlaş zöravon ekstremizmning oldini olişning muhim yönalişi sifatida körsatilgan [1]. Mazkur yondaşuv

deradikalizatsiyani faqat huquqiy yoki xavfsizlik çoralariga asoslangan jarayon sifatida emas, balki ijtimoiy munosabatlarni sog‘lomlaştirişga qaratilgan kompleks mexanizm sifatida talqin qiliş imkonini beradi. Fuqarolik jamiyati institutlarining faol iştiroki şaxsning ijtimoiy mansublik hissini mustahkamlaş, konstruktiv fuqarolik pozitsiyasini şakllantiriş va jamiyatdagi ijtimoiy birdamlikni kuçaytirişga xizmat qiladi.

Özbekiston şaroitida mahalla instituti deradikalizatsiya jarayonining muhim ijtimoiy subyektlaridan biri hisoblanadi. Mahalla fuqarolarning kundalik hayoti, oilaviy munosabatlari va ijtimoiy ehtiyojlari bilan bevosita bog‘liq bölganligi sababli, ijtimoiy muammolarni erta aniqlaş hamda ularni bartaraf etişda muayyan imkoniyatlarga ega. YXHTning 2020-yilda Markaziy Osiyo mamlakatlari uçun işlab çiqilgan qöllanmasida zöravon ekstremizm va terrorizmga olib keluvçi radikallaşuvning oldini olişda davlat sektorlari hamda fuqarolik jamiyati vakillari örtasidagi hamkorlikni kuçaytiriş zarurligi ta’kidlanad [2]. Uşbu yondaşuvni Özbekiston mahalla tizimi faoliyatiga tatbiq etiş orqali deradikalizatsiyaning mahalliy ijtimoiy mexanizmlarini takomillaştiriş mumkin. Jumladan, mahalla faollari, yoşlar yetakçilari, xotin-qizlar faollari, psixologlar va diniy-ma’rifiy soha mutaxassislari örtasidagi hamkorlik radikallaşuv xavfini kuçaytiruvçi ijtimoiy omillarni aniqlaşga xizmat qilişi mumkin. Bunda şaxslarni diniy e’tiqodi yoki qaraşlariga köra tamg‘alaş emas, balki zöravonlikni targ‘ib qiliş bilan bog‘liq real xavf omillarini aniqlaş, ijtimoiy yordam körsatiş va işonçga asoslangan muloqotni rivojlantiriş ustuvor ahamiyatga ega.

Oila şaxsning dastlabki ijtimoiylaşuvi amalga oşadigan, uning dunyoqaraşi, qadriyatlari, axloqiy me’yorlari va ijtimoiy xulq-atvori şakllanadigan asosiy ijtimoiy institut hisoblanadi. Şu sababli deradikalizatsiya jarayonida oilaviy munosabatlarning barqarorligi, avlodlararo muloqot va özaro işonç muhitining mavjudligi muhim omillardan biridir. Birlaşgan Millatlar Taşkilotining Giyohvand moddalar va jinoyatçilik böyiça boşqarmasi (UNODC) qöllanmasida quyidagiça ta’kidlanadi: “Researç suggests that ties to family or friends can act to pull people away from the involvement in violent extremism”. Mazmuni: «Tadqiqotlar oila a’zolari yoki döstlar bilan ijtimoiy aloqalar insonlarni zöravon ekstremistik faoliyatdan uzoqlaştirişga yordam berişi mumkinligini körsatadi» [3]. Mazkur fikr oilaning deradikalizatsiya jarayonidagi ijtimoiy-psixologik ahamiyatini oçib beradi. Oilaviy qöllab-quvvatlaş, hissiy yaqinlik va özaro işonç şaxsning radikal guruhlarga bog‘liqligini kamaytiriş, ijtimoiy identifikatsiyasini qayta şakllantiriş hamda jamiyatdagi konstruktiv munosabatlarga qaytişiga yordam berişi mumkin. Şu bilan birga, oilaning ta’siri har doim ham ijobiy bölmasligi mumkinligi sababli, oilaviy muhitni individual baholaş va zarur hollarda mutaxassislar kömagini taşkil etiş maqsadga muvofiqdir.

Deradikalizatsiya jarayonining samaradorligi davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, mahalla va oila örtasidagi hamkorlikning izçilligi bilan bevosita bog‘liq. Uşbu jarayonda şaxsning zöravonlikni oqlovçi qaraşlardan voz keçişi, ijtimoiy aloqalarini tiklaşi, mehnat va ta’lim faoliyatiga jalb etilişi hamda jamiyatda munosib örin egallaşi muhim vazifalar hisoblanadi. BMT Boş kotibining «Zöravon ekstremizmning oldini oliş böyiça harakatlar rejasi»da zöravon ekstremizmga qarşi kuraşişda xavfsizlik çoralarining özi yetarli emasligi, şaxslarning radikallaşuviga sabab böladigan tub şart-şaroitlarni bartaraf etişga qaratilgan tizimli profilaktik tadbirlar ham zarurligi qayd etilgan [4]. Mazkur konseptual yondaşuv deradikalizatsiyaning köp darajali institutsional modelini işlab çiqiş zaruratini asoslaydi. Bunday modelda davlat organlari taşkiliy-huquqiy şaroitlarni yaratadi, fuqarolik jamiyati institutlari ijtimoiy muloqot va jamoatçilik iştirokini rivojlantiradi, mahalla mahalliy darajadagi ijtimoiy yordam va reintegratsiya faoliyatini muvofiqlaştiradi, oila esa şaxsning ijtimoiy-psixologik barqarorligini qöllab-quvvatlaydi. Natijada deradikalizatsiya alohida profilaktik tadbirlar majmuasidan ijtimoiy moslaşuv va reintegratsiyani ta’minlovçi uzluksiz jarayonga aylanişi mumkin.

Ijtimoiy qöllab-quvvatlaşning asosiy maqsadlari quyidagi dolzarb vazifalarni amalga oşirişda namoyon böladi:

1. aholining kam ta’minlangan qatlamlarini himoya qiliş;
2. ijtimoiy tengsizlikni kamaytiriş;
3. şaxsning ijtimoiy moslaşuvini ta’minlaş;
4. residiv holatlarining oldini oliş (qayta integratsiya jarayonlarida);

5. jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaş.

Yuqorida körsatilgan vazifalar orasidan quyidagilarga alohida e'tibor qaratişni lozim, deb hisoblaymiz:

- zamonaviy jamiyatda ijtimoiy adolat va barqaror taraqqiyotni ta'minlaş uçun aholining kam ta'minlangan qatlamlarini himoya qiliş muhim örin tutadi. Kambag'allik va ijtimoiy tengsizlik nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va siyosiy barqarorlikka ham ta'sir körsatadi. Aynan uşbu barqarorlikni beqarorlikka aylanişi jamiyat a'olarining ayrimlarida radikal siyosiy kayfiyatlarni şakllantiradi va bu holat aksariyat şaroitlarda dindan hudbin manfaatlarga erişi vositasi bölib gavdalanadi. Mazkur ijtimoiy xatarni öz vaqtida bartaraf qiliş uçun davlat konsepsiyasiga muvofiq, davlat aholining ehtiyojmand qatlamlarini qöllab-quvvatlaş, ularning munosib turmuş darajasini ta'minlaş va jamiyat hayotida faol iştirokini rag'batlantiriş vazifasini öz zimmasiga oladi.

- ijtimoiy moslaşuv – bu insonning atrof-muhitga moslaşişi, jamiyat normalari va qadriyatlarini qabul qilişni örganişi va boşqalar bilan özaro munosabatda böliş könikmalarini rivojlantiriş jarayonidir. Ijtimoiy moslaşuv jarayoni erta bolalikdan boşlanadi va umr böyi davom etadi. Ta'lim muassasalari, oila, iş joyi, şuningdek, ijtimoiy institutlar va umuman jamiyat muhim rol öynaydi. Şuningdek, ijtimoiy moslaşuv – bu insonning atrof-muhit bilan özaro ta'sirining murakkab jarayonidir. Içki va taşqi hayot şaroitlari örtasida uyg'unlikka erişiş şaxsning ijtimoiy moslaşuvining öziga xos belgisidir. Ijtimoiy moslaşuv jarayoni örganiş qobiliyatlarini rivojlantiriş va axborotni boşqa nuqtai nazardan idrok etiş qobiliyati orqali sodir böladi. Inson xulosa çiqarişni va qarorlar qabul qilişni örganadi, bu esa uning xatti-harakatlarini butunlay özgartiradi. Ijtimoiy moslaşuv munosabatlardagi muloqotni yaxşilaşga, ijtimoiy muhitda faol iştirok etişga va rivojlanişga, şuningdek, özini jamiyatda hissiy noqulaylikni boşdan keçirmasdan şaxs sifatida qabul qilişga yordam beradi.

- residivni kamaytiriş – jamiyat xavfsizligini ta'minlaş va huquqiy davlat tamoyillarini mustahkamlaşning muhim şartidir. Residiv (lot. recidivus – "qayta qaytuvçi") – jinoyat huquqida avval jinoyat sodir etgan şaxsning yana qasddan jinoyat sodir etişi holatidir. Residivning oldini oliş nafaqat huquqiy çoralar, balki ijtimoiy, psixologik va iqtisodiy omillarni ham qamrab oluvçi kompleks yondaşuvni talab etadi. Residiv holatlarining oldini oliş kompleks va tizimli yondaşuvni talab qiladi. Faqat jazo çoralarini kuçaytiriş orqali emas, balki ijtimoiy reabilitatsiya, kasbiy tayyorgarlik va psixologik qöllab-quvvatlaş orqali barqaror natijaga erişiş mumkin.

- ijtimoiy barqarorlik hodisasi har qanday jamiyat taraqqiyotining muhim poydevori bölib xizmat qiladi. Sotsiologik adabiyotlarda barqarorlik – «stabilis» sözidan olingan bölib, u doimiylik, mustahkamlik, barqarorlik, degan ma'nolarni anglatadi [5, – C.410]. Uşbu ta'rifga tayanib, barqarorlik sotsial tizimning mustahkam holatidir va u mazkur tizimning ratsional darajada faoliyat körsatişi hamda rivojlanişini ta'minlaydi, deb hisoblaşimiz mumkin. Öz navbatida, ijtimoiy barqarorlik turg'unlik va beqarorlikning aksidir va ularga qarşi kuraşiş mexanizmi bölib gavdalanadi.

Zamonaviy Özbekistonda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaşga eng ustuvor masala sifatida qarab kelinmoqda. Bunda jamiyat a'zolari sotsial institutlarning funksiyalari vositaçiligida ijtimoiy majburiyatlarini astoydil bajarişga intilmoqda. Ayniqsa, fuqarolar, millatlar va konfessiyalar örtasidagi munosabatlarning umumxalq manfaatlari asosida takomillaşişi, sotsial nazorat tamoyillarining ta'sirini kuçaytirişga intiliş, kuçli davlat hokimiyati rolining oşib borişi jamiyat barqarorligini saqlaş hamda mustahkamlaşga munosib xizmat qilmoqda.

Albatta, körsatib ötilgan omillar mazkur barqarorlikni töliq ta'minlay olmaydi. Ulardan taşqari yana bir qator ma'naviy omillar ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaşning işonçli garovi bölib gavdalanadi. Ayniqsa, jamiyat a'zolarida radikalizm g'oyalariga qarşi mustahkam mafkuraviy imunitetni şakllantiriş mavjud ijtimoiy barqarorlikning ta'minlaşga xizmat qiladi.

Resotsializatsiya – bu şaxsning avvalgi ijtimoiy normalar va qadriyatlardan voz keçib, yangi ijtimoiy muhitga moslaşişi, jamiyat talablariga mos ravişda qayta ijtimoiylaşuv jarayonidir. U ayniqsa jazoni ötab çiqqan şaxslar, radikal g'oyalarga berilganlar, ijtimoiy faoliyatdan çetlatilgan yoki deviant xulq-atvorga ega şaxslar bilan işlaşda muhim ahamiyat kasb etadi. Resotsializatsiyaning asosiy maqsadi sifatida quyidagi çora-tadbirlarni amalga oşirişni maqsadga muvofiq, deb hisoblaşimiz

mumkin: şaxsni jamiyatga qayta moslaştiriş, qonunga itoatkor xulq-atvorni şakllantiriş, ijtimoiy faollik va mas'uliyatni oşiriş hamda residiv (qayta huquqbuzarlik) holatlarini kamaytiriş.

Özbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 76-moddasiga [6] köra oila jamiyatning asosiy bög'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir.

Oilaning har bir şaxs hayotidagi roli, ayniqsa, farzandlar tarbiyasi muhim omil bölib, bu haqda mamlakatimiz Prezidenti Şavkat Mirziyoev: "...bugungi tez özgarayotgan ziddiyatli davrda oilaviy masalalarni ilmiy asosda çuqur örganmasdan turib, ijtimoiy hayotdagi köplab murakkab savollarga javob topiş qiyin" [7, – B.464], deb alohida urg'u beradi.

Ilmiy sotsiologik adabiyotlarda sotsial institutlar bajarayotgan funksiyalariga qarab tasniflanar ekan, bunda, avvalo, oila institutining ahamiyatiga asosiy e'tibor qaratiş lozim böladi. Çunki, u boşqa sotsial institutlar içida eng köhnalaridan biri hisoblanadi. Belarussiyalik sotsiolog S.Burovaning e'tirofiça, «oila va nikoh insoniyatning eng köhna birligi, kişilar ijtimoiy hayotining eng azalgi şaklidir. Oila sinflar, millatlar va davlatdan oldin, insoniyat yerdagi hayotining «boşlaniş tongida» vujudga keldi. Aynan unda insonlar turmuşining asrdan asrgaça takrorlanib turişi, odamzod naslining davom etişi, yangi avlodning ijtimoiylaşuvi, biologik va sotsial ehtiyojlarning qondirilişi kabi hodisalar sodir böladi» [8, – S.25].

G'arb sotsiologiyasida ham oilaga turli ta'riflar berilib, ularning içida taniqli amerikalik sotsiolog N.Smelzer tomonidan işlab çiqilgan ta'rif özining oddiy, konkret va tuşunarligi bilan ajralib turadi:

«Oila – bu kişilarning qon-qarindoşlikka, nikoh yoki farzandlarni voyaga yetkazişga asoslanadigan birlaşmasi bölib, ular turmuşlarining umumiyligi va farzandlar tarbiyasi uçun özaro mas'uliyatni öz zimmalariga olgan böladilar. Odatda oila a'zolari yagona uyda istiqomat qiladilar» [9, –S.424].

Taniqli özbek olimi Sultonmurod Olimning ta'kidlaşiça, «inson juft qilib yaratilgan. Hozirgi tuşunçadagi oila madaniyatiga erişilguniga qadar esa başariyat köp-köp davrlarni bosib ötgan. Odam jamiyatdan ayri holda yaşaşi ham mumkin emas. Jamiyatning eng kiçik bög'ini esa – oila. Özbek xalqining oila borasida yuksak madaniyati, ming-ming yillik merosi bor. Biz ana şu qadimiy va muqaddas milliy an'analarga, şuningdek, umuminsoniy qadriyatlarga amal qilib yaşaymiz» [10, – B.3].

Şarq xalqlari ҳayoti oilaviy turmuş tarziga asoslangan. Oila, oilaviy munosabatlar ijtimoiy işlab çiqariş va mafkuraviy-siyosiy tuzumga bog'liq bölsa-da, oilaning an'anaviy asosiy urf-odatlari köp asrlardan beri ajdodlardan avlodlarga ötib keladi. Ammo an'ana ҳamda marosimlarning mustaҳkamligi va davomiyligi ijtimoiy ҳayotning barça soҳalarida bir xil bölmagan. Ijtimoiy-iqtisodiy va g'oyaviy-siyosiy omillarning asosiy xususiyatiga qarab, oila ҳamda oilaviy munosabatlar şakllari rivojlanib, özgarib borgan. Şu örinda, oilada turli yoşdagi avlodlararo yuz beradigan ijtimoiy munosabatlarni ҳisobga oliş muҳimdir. Zero, oilaviy birlik maxsus va şu bilan birga, murakkab ijtimoiy munosabatlardan iboratdir.

Ayniqsa, farzand, ota-ona ҳamda qariyalar örtasidagi özaro munosabatlar turli vaziyatda turliça keçadi. Oiladagi munosabatlarning barça uçun maqbul bölişi qariyalarning og'ir-vazmin, muloҳazali, odilona qaroriga köp jiҳatdan bog'liqdir.

Yuqorida körsatib ötilgan ijtimoiy vazifalarni bajarişi bois oila instituti bugungi kunda radikallaşgan kayfiyat ta'siriga berilgan fuqarolarni qayta ijtimoiylaştiriş jarayonida muhim örin tutadi. Zero, aynan oiladagi sog'lom ijtimoiy-psixologik muhit kişining öz xatolarini anglab yetişiga kömak beradi. Çunki oilaning boşqa a'zolari uni tög'ri yölga soliş uçun barça imkoniyatlarni safarbar etadilar. Bunda ota-onaning radikal g'oyalar ta'siriga berilib qolgan farzandi uçun mehribonçilikka asoslangan pandu nasihatlari, oqilona maslahatlari qayta ijtimoiylaştiriş jarayonini normal tarzda keçişi farzand, ota-ona ҳamda qariyalar örtasidagi döstona va samimiy munosabatlarda sodir böladi.

Oiladagi özaro munosabatlarning, hatto, dunyoqaraşida salbiy jihatlar yaqqol sezilayotgan yoşlar tarbiyasida ham barça uçun maqbul bölişi mumkin bölgan kelişuvlar katta avlodning vazmin, muloҳazali, odilona qaroriga köp jiҳatdan bog'liqdir. Oila mustahkam, tinç, farovon, sog'lom bölsagina, jamiyatda barqarorlik vujudga keladi. Uning mustahkamligi oiladagi tinçlik-xotirjamlik,

bir-biriga bölgan samimiy munosabat, oila a'zolarining axloqiy tarbiyasiga bog'liq. Şuning uçun oila xulq-odob qadriyatlari, tarbiyani şakllantirişda asosiy mezon bölib gavdalanadi.

Farzand tarbiyasida oiladagi muhitning tög'ri yölga qöyilişi, ota-onaning ibrati va mas'uliyati har doim muhim ahamiyat kasb etadi. Oila munosabatlari, asosan, ota-ona va farzandlar örtasida keçgani bois ota oilaning sarboni hisoblanadi. Turli oilaviy muammolarni hal qilişda otaning fikri hamda maslahati muhim ahamiyatga ega böladi.

Ma'lumki, farzand tarbiyasida matonatli, fidoyi, sabr-toqatli, ba'zan qattiqqöl, tejamkor otaning ham, mehridaryo, bag'rikeng, yumşoqköngil onaning ham öz örni bor. Oiladagi sog'lom muhit, ota-ona tarbiyasi orqali nafaqat jamiyatning bugungi kuni, balki uning istiqboli, avlodlar vorisiyligi ham belgilanadi. Ota-onani hurmat qiliş, odob axloqning va odamgarçilikning buyuk xislatidir. Ota-ona va farzandlar örtasidagi axloqiy qoidalarning hozirgi kunda yoşlar tarbiyasidagi örni alohida. Şuning uçun xalqimiz orasida şakllangan bunday dunyoqaraş va odob-axloq bugungi kunda ham inson ma'naviy qiyofasini ifoda etib kelmoqda.

Yuksak ma'naviyatli ota-ona oilaning mohiyati, qadri, burç, mas'uliyat, oilaviy vazifalari, oilada barkamol farzand tarbiyasi, oilani moddiy jihatdan ta'minlaş, uning osoyiştaligini saqlaş kabi vazifalarni anglab yetadi va unga amal qiladi. Ota-ona farzandlarini insonparvar, vatanparvar, axloqiy jihatdan pok, bilimli, kamtar, olijanob qilib tarbiyalaş lozimligi e'tirof etiladi. Farzandlarda sog'lom ijtimoiy munosabatlar dastlab oilada, ota-ona, katta yoşdagi oila a'zolari ta'sirida şakllanadi. Oila qançalik inoq, uyuşgan va mustahkam bölsa, uning bolaga ta'siri ham şunçalik samarali böladi. Bunday oila özining qadriyatlaridan taşqari, jamiyatning qadriyatlari, qonun-qoidalar va ijtimoiy me'yorlarini hurmat qiladi, bola yoşligidan jamiyatda yaşaşga örganadi va könikma hosil qilib boradi. Odam bolasi uçun eng buyuk va qadrli insonlar, ya'ni ota-onani e'zozlaş – odob-axloqning eng asosiy belgisi ekanligi. Ota-onaga hurmat körsatiş va ularga mehribonlik bilan qaraş – har bir ög'il-qizning asosiy vazifasi. Binobarin, farzand ota-onani rozi qilmay turib, heç bir işida baraka bölmasligini bilmog'i kerak.

Ota – buyuk inson. Islom dini ta'limotiga muvofiq, Alloh Odam alayhissalomni tuproqdan yaratdi. Ötkinçi foniy dunyo şundan boşlanadi. Odam alayhissalom yaratilgan kunlaridan boşlab, Alloh bilim va ma'rifat bergan. Bilim nuri bilan u zotni fariştalardan ustuvor qilgan. U dunyoviy hayotini amallarga sarflaydi. Oxiratini obod qilişga urinadi, insoniyatni bunday amallarga örgatgan ilk muallim bu – ota. Şuning uçun xalqimiz ota roziligi Xudo roziligi ekanligini nasihat qiladi. Ota tarbiyasini, nasihatini olgan aqlli farzand yomon iş qilmaydi va yomonlikdan qoçadi. Heç kimga xiyonat qilmaydigan odam ota tarbiyasini körgan mömin odamdir. Otaga ozor beruvçiga Yaratgan ham şafqat qilmaydi. Ota roziligi Uning, Yaratganning roziligi hisoblanadi.

Öz navbatida islom dinida bolani voyaga yetkazişda tarbiyasida katta mas'uliyat yuklanganligini anglab yetişimiz zarur. Hadisi şarifda «Ota bolaga gözal odobdan yaxşiroq narsani bera olmaydi» (Termiziy rivoyati), deb bayon etilgan [11, – B.5]. Masalaga şu nuqtai nazardan yondaşsak, oilada ota öz vazifalarini yuqorida körsatilgan xususiyatlarda olib bormasa, unda farzand va ayniqsa, ög'li bola tarbiyasida jiddiy nuqsonlar vujudga keladi.

Jumladan, farzand diniy bilimlarni özlaştiriş maqsad qilib, göyoki ilm oliş harakatida bölib körinadi, ammo bunda uni zararli oqimlar ta'siriga tuşib qoliş extimoli kuçayadi. Şunday vaziyatlarni avvalambor ota öz vaqtida payqay olişi muhimdir. U farzandi bilan öz oilasini qurganmi yoki hali mustaqil oilasi yöqmi bundan qat'iy nazar, muntazam tarzda diniy mavzuda suhbatlaşişi lozim. Şuning asosida farzandining din va diniy e'tiqod haqidagi tasavvurlaridan xabardor bölişi mumkin. Albatta, bu iş oson emas, zero, bu masalada otaning özi yetarli darajada diniy ilmlarga ega bölişi talab etiladi. Demak, oila rahbarining yetarli darajada diniy bilimlarga ega bölişi radikalizm kayfiyatidagi farzandlarni qayta ijtimoiylaştiriş jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi, degan xulosani dadil ilgari surişimiz mumkin böladi.

Öz davlat mustaqilligiga erişgaç Özbekiston xalqi ijtimoiy rivojlanişning milliy modeli asoslarini işlab çiqişga kirişdi. Uning asosini xalqimizning asrlar davomida şakllangan, milliy-madaniy xususiyatlarini ifoda etgan urf-odatlari, an'analari, udumlari, axloqiy me'yorlari, e'tiqodi kabi sifatlarini qamrab oladigan yagona ijtimoiy tizim taşkil etadi. Bu tizim esa ijtimoiy taraqqiyot jarayonlarining keçişi davomida vujudga kelayotgan muammolarining özига xos yeçimini işlab çiqiş

mexanizmi bölib xizmat qiladi. Ayniqsa, murakkab ötiş davri şaroitlarida jamiyat a'zolarining kam ta'minlangan qatlamlarini kuçli ijtimoiy siyosat asosida himoya qiliş milliy modelning asosiy tamoyilaridan bölib xizmat qilişi mamlakatimizni turli xil köngilsiz ijtimoiy xodisalar: millatlararo ziddiyatlar, diniy körinişdagi toqatsizlik va fuqarolar örtasida mahalliyçilikka tayanadigan kelişmovçilik kabi salbiy illatlardan himoyalanişining işonçli omili bölib xizmat qildi. Vaholanki, mazkur kuçli ijtimoiy siyosat mamlakatimiz rahbariyati tomonidan böş joyda amalga oşirilmadi.

Haqiqiy va manzilliy ijtimoiy himoya asoslarini işlab çiqişda qadimgi Movaraunnahrda mavjud bölgan ijtimoiy kömak tizimining tarixiy ildizlariga asosiy e'tibor qaratildi. Bu jarayonda mahalla institutinig örni öziga xosdir. Mahalla – bu ijtimoiy-hududiy maskan bölib, u ijtimoiy kelib çiqişi, millati, yoşi turli odamlardan taşkil topadi. Mahalla oilaviy ahillikni saqlaşni ta'minlaşda hal qiluvçi omildir. Oila va mahallada sog'lom muhit mavjud bölgandagina ularda har tomonlama sog'lom, barkamol inson şakllanib, kamol topadi. Şuning uçun mahallalar davlat himoyasiga olingan. Mahallada oqsoqol uçun «begona» xonadon yoki «notaniş» kimsa bölmagan. U heç kimga özgaça nazar bilan qaramagan. Şuning uçun ham u istalgan xonadonga bemalol eşik qoqib kiravergan, mahalladoşlar bilan sirdoş, hamfikr böla olgan. Ota-bola, qaynona-kelin munosabatlarini, biror xonadondagi nosog'lom muhitni, xullas, oilaning oddiy ikir-çikirlarigaça, örganib öz munosabatini bildirgan. Zarur bölganda, amaliy yordam ham bergan.

Qadimdan mahalla oqsoqolining haq-huquqlari şu tarzda şakllanib kelgan. Şuning uçun ham uning aytgani aytgan, degani degan bölgan. Hozirgi kunda mahalla faollari qaysi xonadonda kim yaşaydi, nima iş bilan şug'ullanadi, qaysi farzandi nimalarga qodir, oila muhiti qay darajada, qanday muammolari bor – xullas hammasini yaxşi bilişi şart.

Mahalla faollari mahallalarni obodonlaştiriş, haşar va turli tadbirlar uyuştirişdan boşlab, to kiçik va örta tadbirkorlik tizimini taşkil etiş, yoşlarni kasb-hunarga örgatiş, xotin-qizlarni oilaviy şaroitga mos keladigan qulay iş joylari bilan ta'minlaş, oilalarda tinçlik va xotirjamlikni ta'minlaş maqsadida huquq-tartibot qoidalariga rioya qilişni saqlaş, töy-haşam va ma'rakalarni an'analarimizga mos holda ixçam ötkaziş, şuningdek, diniy-ekstremistik yönalişda jazoni ijro etiş muassasasidan qaytgan şaxslar bilan ularni jamiyatga qayta moslaştiriş kabi vazifalarni bajarib kelayaptilar.

Zero, mahallaning bajarayotgan bunday vazifalari avvalambor jamiyat barqarorligini ta'minlaş va mustahkamlaşga xizmat qilişi uçun dolzarb masala hisoblanadi. Çunki, aholini ijtimoiy himoya qiliş, kişilarni og'ir vaziyatlarga tuşib qolganida ularga kerakli kömakni körsatiş mahallaning azaliy an'analarida biri bölib kelgan. Bizga yaxşi ma'lumki, mahalla özining yuqorida körsatib ötilgan ijobiy sifatlari tufayli olib borilayotgan ijtimoiy işning hayotiyligi va amaliyligini ta'minlaydi. Mahallaning kişilarga moddiy va ma'naviy yordam körsatiş funksiyasi ayniqsa oilaning qayg'uli kunlarida yaqqol namoyon böladi. Mahalla rahbariyati marhumning dafn etilişini taşkil etadi va bu haqida mahalla ahlini xabardor qiladi. Mahalla oqsoqoli esa bu jarayonda şaxsan iştirok etadi va rahbarlik qiladi. Agarda motamni boşidan ötkazayotgan oila kam ta'minlangan bölsa, unda unga ma'naviy daldadan taşqari mahalla ijtimoiy jamg'armasidan moddiy yordam ham körsatiladi va bu muhtoj kişilarga manzilli ijtimoiy yordam körsatişning texnologiyasi sifatida e'tirof etiladi. Mahallada olib boriladigan ijtimoiy işning yana bir muhim va tarixiy an'analarga bog'liq bölgan faoliyat turi – bu jamiyatning ilk bög'ini hisoblanmiş oila mustahkamligini ta'minlaşdir. Heç bir oilaviy mojaro, ajrimlar va oila a'zolarining radikalizm ta'siriga berilib qolişi harakatlari mahallaning e'tiboridan taşqarida qolmaydi. Çunki radikal g'oyalarga moyillik köp hollarda ijtimoiy muhit, oilaviy muammolar, işsizlik va ma'naviy böşliq natijasida yuzaga keladi. Bu muammolar esa eng avvalo mahalla darajasida namoyon böladi. Mahallada aholining ijtimoiy holati doimiy kuzatib boriladi, ya'ni yana ham aniqroq aytilsa, xavf guruhiga kiruvçi şaxslarni aniqlanadi; yoşlar, işsizlar, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar bilan manzilli işlar olib boriladi.

Şuningdek, mahalla fuqarolar yig'ini orqali radikal g'oyalar tarqalişining oldi olinadi; tuşuntiriş va ma'rifiy suhbatlar taşkil etiladi va diniy savodxonlikni oşirişga kömaklaşiladi.

Radikal qaraşlarga moyil yoki ular ta'siriga tuşgan şaxslarni qayta ijtimoiylaştirişda mahalla oila va jamoa bilan aloqani tiklaydi, iş bilan ta'minlaşga kömaklaşadi hamda psixologik qöllab-quvvatlaşni taşkil etadi. Jamoaviy qöllab-quvvatlaş şaxsning özini jamiyatning bir qismi sifatida his

etişiga yordam beradi. Bu esa radikal muhitga qayta kirib ketiş ehtimolini kamaytiradi. Şu nuqtai nazardan, oila va mahalla institutlarining özaro hamkorligi bugungi kunda uçrab turgan radikalizm g‘oyalariga qarşi kuraşişda sermahsul natijalarni bermoqda. Zero, mahalla oila bilan yaqin işlaydi. Deradikalizatsiya jarayonida: oilaviy muhitni sog‘lomlaştiriş, tarbiyaviy işlarni kuçaytiriş, ota-onalar mas’uliyatini oşiriş muhimdir. Oila – radikallaşuvga qarşi eng kuçli ijtimoiy tösiq hisoblanadi. Mahalla esa bu jarayonda muvofiqlaştiruvçi rolini bajaradi.

Jumladan, radikalizm ta’siriga berib qolgan kişilarning oilaviy hayotlarini sotsio-psixologik jihatidan örganiş asosida muayyan ma’lumotlarga ega böliş mumkin. Özbekiston xalqaro islomşunoslik akademiyasi professori M.Akramov va dotsent S.Xidirov tomonidan 2024 yilning yanvar-iyul oylarida aholi orasida diniy radikalizm va yot g‘oyalar ta’siriga tuşgan şaxslarni resotsializatsiya qilişga oid Özbekiston Respublikasi Din işlari böyiça qömita tomonidan ötkazilayotgan ma’rifiy targ‘ibot tadbirlari doirasida Toşkent viloyatining *Zangiota, Toşkent, Yangi yöl, Qibray, Çirçiq, Angren, Parkent, Yuqori çirçiq, Böstonliq, Örta çirçiq, Böka va Ohangaron* kabi tuman va şaharlari tanlab olindi.

Uşbu hududlarda istiqomat qiluvçi, körinişi va xatti-harakatida diniy mutaassiblikka moyil deb topilgan şaxslar jalb qilingan tadbirlar doirasida maqsadli tanlab olinib, sotsiologiyaning anketali sörov usuli qöllanildi va psixologik kuzatuv ötkazildi. Tadqiqotga jami bölib 1000 nafar erkak jinsiga mansub respondentlar jalb etilib, ulardan olingan 969 ta sörovnoma varaqasi qayta işlaş va tahlil uçun yaroqli deb topildi hamda tahlil şu miqdordan kelib çiqqan holda amalga oşirildi.

Ma’lumki, agarda fuqarolar, ayniqsa yoşlarning mentalitetiga islom dinidan g‘araz siyosiy maqsadlarda foydalanayotgan, aslida musulmonçilikka faqat dog‘ tuşirayotgan ekstremistik kayfiyatdagi turli oqimlarning mafkurasi faol ta’sir körsatsa, unda jamiyat barqarorligi va rivojiga jiddiy tahdidlar vujudga keladi. Milliy mentalitet va uning strukturasidagi diniy e’tiqod xususiyatlarini tahlil qilar ekanmiz, masalaning yana bir tomoniga e’tibor qaratiş lozimligini ta’kidlab ötmoqçimiz. Xususan, kişilar mentalitetidagi diniy hayot haqidagi tasavvurlar ham ijtimoiy jarayonlarga faol ta’sir körsatişga xizmat qilişi mumkin. Buning uçun esa ulardagi dindorlik sifatlari va ular tomonidan din körsatmalariga amal qiliş holatlarini aniqlaş talab etiladi. Ana şu mantiqdan kelib çiqib, tadqiqot iştirokçilariga «Siz özingizni dindor, deb hisoblaysizmi?» degan savol bilan murojaat qilindi.

Natijalar tahliliga köra, tadqiqotga jalb etilgan şaxslarning uçdan ikki qismi dunyoviy hayot tarziga ega. Olingan natijalar Toşkent viloyatining tuman va şaharlarida tadqiqotga jalb etilgan respondentlarning 19,6 foizi özini faol diniy hayot tarziga ega ekanligini körsatgan. Sörovga jalb qilinganlarning 34,4 foizi diniy hayotda unçalik faol emasligini, 10,3 foizi “Xudo yuragimda, boşqasi ahamiyatli emas” degan fikrda va 24,5 foiz respondentlar “Men xudoga işonsam-da, zamonaviy hayot keçiraman” degan variantni belgilagan.

1-jadval

Respondentlarning dindorlik darajasi böyiça tahlili
(foiz hisobida)

№	Siz özingizni dindor, deb hisoblaysizmi?	Foizi
1.	Ha, men dindorman, faol diniy hayot tarziga egaman.	19,6
2.	Men unçalik dinga berilmaganman, diniy hayotda faol emasman.	34,4
3.	Xudo yuragimda, boşqasi ahamiyatli emas.	10,3
4.	Men xudoga işonsam-da, zamonaviy hayot keçiraman.	24,5
5.	Javob berişim qiyin.	11,2
Jami		**100**

Yuqoridagi savolning javoblarini yanada konkretlaştiriş maqsadida, tadqiqotda

2-jadval

Respondentlarning din talablariga amal qiliş darajasi böyiça tahlili *(foiz hisobida)*

№	Dinning talablariga (farz, vojib, sunnat va h.k) amal qilişga harakat qilasizmi?	Foizi

1.	Ha, barçasiga.	22,3
2.	Ha, faqat ba'zilariga.	53,9
3.	Yöq, amal qilmayman.	7,1
4.	Bunga hojat yöq, deb öylayman.	5,3
5.	Javob berişim qiyin	11,5
Jami		**100**

Toşkent viloyatining şahar va tumanlari mahallarida ötkazilgan tadqiqot natijalari tahliliga köra yoşlarning turli yot g'oyalarga berilişning asosiy sabablari deb yot g'oyalarning mudhiş oqibatlar keltirişini aniq bilmasligiga **18,8 %**, iqtsodiy sabablarga köra **4,6 %,** oila tarbiyasi **18,9 %**, diniy bilimlarning yöqligi **26,5 %**, jamiyatimizda xavfli holatlarning oldini oliş, bir-birini ogoh etiş böyiça özaro muloqot qiliş an'anasining sustligini **4,6 %**, turli oqim a'zolarining taşviqotlari ta'siriga tuşib qoladi degan fikrdagi respondentlar **8%**.

Şuningdek, internetdagi turli ijtimoiy tarmoq va vebsaydlardagi tarqalayotgan diniy oqim taşviqotçilari videolarini köriş oqibatida yoşlarning turli yot g'oyalarga beriliş mumkin deb hisoblovçilar **5,7%** ni taşkil qildi. **12,9 %** tadqiqot iştirokçilari yoşlarning yot g'oyalarga berilib qolişining sabablari tög'risida öylab körmagan ekanligini aytib ötişgan. Olib borilgan tadqiqot natijalaridan yaxşi bölayaptiki, oilalar va mahallalarda yoşlar tarbiyasi oid olib borilgan işlar yanada izçilik va qat'iyatlikni talab etadi. Radikalizm balosiga uçrab qolgan oilalar mahalla ahli, rahbariyatining mehribonçiligidan bebahra qolişi mumkin emas.

Aksinça, bunday murakkab ahvolga tuşib qolgan oilalarga maksimal darajada ijtimoiy kömak körsatiş deradikalizatsiya jarayonini muvaffaqiyatli tarzda amalga oşirişga kömak beradi. Bunga misol tariqasida Toşkent şahrining Şayxontoxur tumanida joylaşgan "Jar-ariq" mahallasi fuqarolar yig'inining sobiq raisi Anvar akaning iş faoliyatini körsatişi mumkin. Uşbu inson raisligi davrida mahallada bilib-bilmasdan zararli oqimlar ta'siriga tuşib qolib, jazo muddatini ötayotgan fuqarolarning oila a'zolariga öz mablag'i hisobidan oziq-ovqatlar tarqatib yurganining şohidi bölganman. Şuning uçun bunday toifadagi oilalar a'zolari va umuman mahalla ahlining aksariyati Anvar akani hurmat qilib, uning pandu nasihatlariga quloq solar edi.

Demak, şunday oliyjanob kişilarning mahallalarda olib borayotgan ijtimoiy faoliyati radikal kayfiyatga berilgan kişilar, ayniqsa, yoşlarni qayta ijtimoiylaşuvi, ularning davlatimiz tomonidan din va diniy e'tiqod masalalariga oqilona yondaşişini tög'ri anlab borişlarida muhim omil bölib xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, fuqarolik jamiyati, mahalla va oila institutlari deradikalizatsiya jarayonini samarali amalga oşiriş, jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaş hamda yoşlarni zöravon ekstremistik g'oyalar ta'siridan himoya qilişda muhim örin tutadi. Mazkur institutlarning özaro hamkorligi radikallaşuvga olib keluvçi ijtimoiy omillarni barvaqt aniqlaş, diniy-ma'rifiy savodxonlikni oşiriş, ijtimoiy begonalaşuvning oldini oliş va şaxslarning jamiyatga qayta integratsiyalaşuvini ta'minlaşga xizmat qiladi.

Toşkent viloyatining şahar va tumanlarida ötkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalari aholining diniy e'tiqodi va diniy amaliyotlarga munosabati turliça ekanligini körsatdi. Xususan, respondentlarning 19,6 foizi özini faol diniy hayot tarziga ega deb hisoblagan bölsa, 34,4 foizi diniy hayotda unçalik faol emasligini bildirgan. Şuningdek, sörov iştirokçilarining 53,9 foizi diniy talablarning ayrimlariga, 22,3 foizi esa barçasiga amal qilişga harakat qilişini qayd etgan. Uşbu natijalar diniy e'tiqod va diniy amaliyotlarning şaxslar hayotidagi örni turliça ekanligini körsatib, deradikalizatsiya jarayonida aholining ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini hisobga oliş zarurligini asoslaydi.

Tadqiqotda yoşlarning radikal g'oyalar ta'siriga tuşişiga sabab böluvçi omillar sifatida diniy bilimlarning yetişmasligi (26,5 foiz), oilaviy tarbiyadagi muammolar (18,9 foiz) hamda bunday g'oyalarning salbiy oqibatlarini yetarliça anglamaslik (18,8 foiz) köproq qayd etilgan. Bu esa deradikalizatsiya jarayonida diniy-ma'rifiy targ'ibot, oilaviy tarbiya, tanqidiy fikrlaş va yoşlarning axborot madaniyatini rivojlantirişga ustuvor ahamiyat qaratiş lozimligini körsatadi.

Şu bilan birga, mahalla institutining ijtimoiy qöllab-quvvatlaş, özaro işonç va hamjihatlikni mustahkamlaşga qaratilgan faoliyati deradikalizatsiyaning muhim amaliy mexanizmi hisoblanadi. Ayniqsa, radikal oqimlar ta'siriga tuşib qolgan şaxslar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy yakkalanişdan himoya qiliş, ularga ma'naviy-ruhiy va moddiy yordam körsatiş, jamiyatga qayta moslaşuvi uçun qulay şaroit yaratiş alohida ahamiyatga ega. Bu borada mahalla faollarining insonparvarlik, bag'rikenglik va ijtimoiy mas'uliyatga asoslangan faoliyati jamiyatda özaro işonçni mustahkamlaşga xizmat qiladi.

Şunday qilib, deradikalizatsiya jarayonining samaradorligi fuqarolik jamiyati, mahalla va oila institutlarining özaro muvofiqlaştirilgan faoliyati, diniy-ma'rifiy savodxonlikni oşiriş, ijtimoiy profilaktika hamda insonparvarlikka asoslangan reintegratsiya mexanizmlarini rivojlantiriş bilan uzviy bog'liqdir. Mazkur yönalişda kompleks va manzilli yondaşuvni amalga oşiriş yoşlarning radikallaşuv xavfini kamaytiriş, jamiyatda bag'rikenglik va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlaş hamda barqaror ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlaşning muhim şartlaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar / Literatura / References:

1. OSCE. The Role of Civil Society in Preventing and Countering Violent Extremism and Radicalization that Lead to Terrorism: A Guidebook for South-Eastern Europe. Vienna, 2019. Rasmiy manba
2. OSCE. A Whole-of-Society Approach to Preventing and Countering Violent Extremism and Radicalization That Lead to Terrorism: A Guidebook for Central Asia. Vienna, 2020. Rasmiy manba
3. UNODC. Handbook on the Management of Violent Extremist Prisoners and the Prevention of Radicalization to Violence in Prisons. United Nations, 2016. – P. 72. PDF manba
4. United Nations. Plan of Action to Prevent Violent Extremism. Report of the Secretary-General. A/70/674. New York, 2015. Rasmiy hujjat
5. Кравченко С.А. Социологический энциклопедический русско-английский словарь. – М.: «Астрель Аст. Транзиткнига». 2004. – С.410.
6. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент: "Юридик адабиётлар", 2023.
7. Мирзиёев Ш.М. Оила ва жамият устуни, ҳаётимизнинг файзи ва кўрки. // Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2 жилд - Тошкент: Ўзбекистон, 2018.
8. Бурова С.Н. Социология брака и семьи: история, теоретические основы, персоналии. – Минск: «Право и экономика». 2010.
9. Смелзер Н. Социология. Перевод. с англ. – М.: «Феникс». 1994.
10. Султонмурод Олим. Оила ва жамият ёхуд микрожамият ва макрооила. –Тошкент: Республика маънавият тарғибот маркази. 2017.
11. Усмонхон Алимов. Оилада фарзанд тарбияси. – Тошкент: «Movarounnahr». 2014.

ISSN 2181-9556

Doi Journal 10.26739/2181-9556

ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000